# BOSHLANGʻICH SINF OʻQUVCHILARIDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISH

**Odinaboboyev Fazliddin Bahriddin oʻgʻli**
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*
*tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda maktab bitiruvchi oʻquvchilari boʻlishiga qaramay, kelajakda oʻzini qanday kasbiy faolyatda koʻrishini aniq bilmasligi va buning oldini olish, yaʼni boshlangʻich sinfligidayoq milliy hunarmandchiliklar orqali kasbiy tarbiyani tarkib toptirish borasida olib borilgan tadqiqotlar yoritilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *tarbiya, hunarmandchilik, xalq, mexanizm, sanʼat, sinf.*

“Madaniy jamiyat shunday boʻladiki, shu mamlakatning aholisidan boʻlgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar boʻladi,

*har Kim oʻzi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shugʻullanad”*

***Farobiy***

“Mamlakatimizda sogʻlom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda hal qiluvchi oʻrin tutadigan taʼlim-tarbiya sohasidagi ishlar koʻlami tobora ortib bormoqda”[2:17 b]. Quyidagilar misolida ham koʻrish mumkin.

“Xalq hunarmandchiligi anʼanalarida yashayotgan ijodkor badiiy til sifatini, maktab sanʼatining sifatini, qadriyat oʻrnini – idealga ega boʻlgan anʼanalarni oʻrganadi”[3:47 b]. Bunday rassomning yutugʻi - xalq amaliy sanʼatini maktab oʻquvchilaridan emas, balki oʻquv mashgʻulotidan emas, balki oʻzini yangi narsalarni tasvirlaydigan rassom sifatida emas, balki oʻzini namoyon qilish gʻoyasidan emas. anʼanalardan, xalq dunyoqarashini, xalq amaliy sanʼatining mazmun-mohiyatini anglash nafaqat noziklik, uslub, balki eʼtiqodni, anʼanalar dialogini ham talab qiladi. Shulardan kelib chiqib, bugungi kunda hayotiy va ijodiy, badiiy ehtiyojlar bilan keskin ziddiyatga tushib qolgan bir qator tushunchalarning nomuvofiqligini taʼkidlash lozim.

Zamon qaʼridan olingan yashirin bilimlar bilan sugʻorilgan xalq amaliy sanʼati anʼanalari maktablari inson va tabiat birligi qonuniyatini, ular oʻrtasidagi uygʻunlik zarurligini hayotning oʻzi kafolati, eng oliy qadriyat sifatida tasdiqlaydi, bu esa fojiali holdir. Sivilizasiya tomonidan buzilgan, ammo vaqt ochiqligi tufayli doimo xalq ijodiyoti tomonidan takrorlangan. Bu xalq ijodiyoti taʼsirining maʼnaviy, axloqiy, estetik kuchi boʻlib, insonning Yaratuvchi bilan, tabiat bilan munosabatini boshdan kechirish orqali avlodlarni bogʻlaydi, bu oʻziga xos madaniy anʼanalarga ega boʻlgan xalqlarga tinch yoʻl bilan targʻib qilish va oʻzaro hamkorlik qilish imkonini beradi. Bu Oʻzbekiston uchun xos boʻlib, u «hunarmandchilik» soʻzi bilan belgilangan faoliyatning oʻzi kabi, xalq sanʼatini mazmun bilan toʻldiradi. Bu kabi anaʼnalarni yoʻqolib ketish oldini olish maqsadida ustoz-shogirt

tizimini ham takomillashtirish oʻz dolzarbligiga ega. Ushbu masala yechimi sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son qarori asosida qabul qilingan Hunarmandchilik sohasini yanada rivojlantirish boʻyicha “YOʻL XARITASI”ning III bandida quyidagi belgilab berilgan vazifalar asoda ham koʻrish mumkin. “Usta-shogird” an’analari asosida hunar oʻrgatish tizimini takomillashtirish: “Hunarmandchilikka ixtisoslashgan hududlarda hunarmandchilik va xalq amaliy san’ati yoʻnalishlari boʻyicha bolalar musiqa va san’at maktablari, “Barkamol avlod” bolalar markazlari hamda Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi kasb-hunarga oʻqitish markazlarida oʻquv kurslarini tashkil etish”[1:3] ni koʻrsatish mumkin.

Ustalikni faqat oʻzlari mukammal oʻzlashtirganlargina oʻrgatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalq hunarmandchiligi hamisha professionaldir, chunki xalq ustasi mahsulot tayyorlashning an’anaviy usullarini bilishi va ularni puxta egallashi kerak. Demak, xalq ijodiyotida jamoa va individual tamoyillar ajralmas dialektik birlikda boʻlib, bir-birini toʻldiradi va boyitadi.

Ba’zida biz katta maktab yoshi(ilk oʻspirinlik 16-17 yosh)da, “oʻsmirlikning murakkabligi anotomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli oʻzgarishlar bilan bogʻliqdir. Bolaning oʻsishi tezlashadi. Bu davrni oʻtish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy etilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe’l-atvoriga ta’sir etadi. Oʻsmir hayotida mehnat, oʻyin, sport va jamoat ishlari katta rol oʻynaydi. Ba’zilarining oʻzlashtirishi pasayadi, intizomi boʻshashadi”[4:37] gan davrda kasbga yoʻnaltira boshlaymiz. Bu davrda ta’lim oluvchida qator murakkab jarayonlar kechayotganligi tufayli biz olib boradigan faoliyat samarasi past poʻladi. Shundayin omillarni inobatga olgan holda boshlangʻich sinflardayoq kasbga yoʻnaltirish faoliyatini boshlash kerak. Bu faoliyatni turli xil materiallardan foydalanish misolida ham koʻrish mumkin.

Ma’lumki boshlangʻich sinf umumiy oʻrta ta’limning poydevori hisoblanib, unda bola shaxsini ilk koʻrinishlari shakllanadi. Shu jumladan maktab ta’limiga aynan boshlangʻich ta’lim tizimiga e’tibor beradigan boʻlsak:

1-sinf oʻquvchilarining ijodkorlikka oʻrgatishda tabiiy material bilan ishlashda ayrim kasblarda ishlatiladigan asboblar nomlarini va nima maqsadda ishlatilishini bilish, yogʻoch materiallaridan olinadigan daraxtlarini tanishi va ularning nomlarini bilishi, ayrim gazlama turlari nomi, xususiyatlarini va ulardan tayyorlanadigan buyumlarni bilishi, pazandalikda ishlatiladigan mahsulotlarning turlari va nomlari nima maqsadda ishlatilishini bilishi;

-qandolatchilikda ishlatiladigan xom ashyolar va tayyorlanadigan mahsulotlarni bilishi;

-qurilish sohasida ishlatiladigan materiallar nomi, ayrim xususiyatlari va kartondan eng oddiy shakldagi buyumlarni qirqib tayyorlashi ularning rasmini chizish, boʻyash hamda eng oddiy naqshlar bilan bezash;

-tugma qadash, oddiy choklarni tikish, gazlamalar qirqish kabi ko`nikmalarni bilishlari lozim.

2-sinfda turli materiallar bilan ishlashda ayrim kasblar mahsulotlari yoki tayyorlanadigan buyumlar eskizlarini chizish va oddiy bezaklar bilan ishlash, bir necha kasblar sohasida ishlatiladigan asboblarning tuzilishi hamda ishlatilishini bilish;

-ayrim tabiiy materiallardan oddiy tasvir va naqshlar tuzish;

-yogʻoch materiallarning qattiq–yumshoqligi, suvga, zaxga va boshqa ta’sirlarga chidamliligini bilish;

-gazlamalarning haroratga, saqlanishga chidamliligi; turli gazlamalarning har xil ta’sirlari natijasida oʻzgarishlarini bilish;

-tuproq, loy, sopol va boshqa materiallarning asosiy xususiyatlarini bilish; oziq–ovqat mahsulotlarining eng oddiy xususiyatlarini bilish;

-qogʻoz va karton gazlamalarini qirqish va kesish asboblaridan toʻgʻri foydalanish;

-kashtachilik va tikuvchilikda qoʻllaniladigan asosiy chok turlarida tikish;

-ayrim ekinlarni oʻstirishning eng oddiy qoidalarini bilishlari kerak.

3-sinfda turli materiallar bilan ishlashda har xil oddiy buyumlar va mahsulotlar tayyorlash jarayonlari ketma–ketligi hamda foydalaniladigan xom ashyolarni bilish;

-Ularni soʻzlar va turli tasvirlar, jadvallar orqali ifodalay olish;

-ommaviy ishlatiladigan mehnat qurollarining turlarini va ulardan toʻgʻri foydalanishni bilish;

-ayrim oddiy buyum va mahsulotlarni tayyorlash uchun eskizlar chizish, qogʻoz va karton, gazlama va boshqa materiallardan oddiy shakldagi gullar yasash;

-sopol buyumlar va kashtachilik buyumlari uchun oddiy naqshlar ishlash, eng oddiy applikatsiya va mozaika ishlarini bajarish;

-ayrim milliy hunarmandchilik kasblarida ishlatiladigan materiallar hamda asboblarning nomi turlari va xususiyatlarini bilish, ulardan xavfsizlik qoidalariga muvofiq foydalanish milliy hunarmandchilik kasblariga oid eng oddiy iqtisodiy huquq va ekalogik masalalarni bilish;

-loydan milliy oʻyinchoqlar yasash, ularni boʻyash va naqshlar bilan bezash;

-yogʻoch va boshqa har xil materiallardan oddiy buyumlar va oʻyinchoqlar yasash;

-gazlamalardan oddiy buyumlarni tikish va kashta naqshlar bilan bezash;

-pazandalik va qandolatchilikning ayrim texnologik jarayonlarini bajarish kabi vazifalarni bajarishda oʻquvchilarni ijodkorlikka oʻrgatishda juda ham qoʻl keladi.

4-sinfda esa yogʻochdan oddiy buyumlar tayyorlash jarayoni uchun texnologik jadval hamda grafik tasvirlarni bajarish;

-oziq–ovqat tayyorlash jarayoni uchun texnologik jadval hamda ayrim oziq-ovqat mahsulotlarini turli shakllarda tayyorlash uchun eskizlar chizish, turli shakllarning bir–biriga nisbatan oʻlchami, rang va bezaklar boʻyicha mutanosibligini tushunish va soʻzlab bera olish;

-zargarlik, gilamdoʻzlik, kulolchilik va boshqa kasblarda naqqoshlikdan foydalanishning eng oddiy usullarini bilish;

-ayrim kasblar sohasidagi materiallarga ishlov berishning zamonaviy usullari va asbob-uskunalarni bilish, ayrim ish harakatlarini bajarish koʻnikmalarini egallash: Har xil materiallardan koʻp hunarmandchilik buyumlari va oʻyinchoqlar tayyorlash, qoʻgʻirchoqlar uchun koʻylaklar tikish va kashta gullari bilan bezash, taomlar pishirish uchun sabzavotlar tayyorlashni bilish oʻquvchilarni ijodkorlikka oʻrgatishda qulay deb bilamiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir pedagog mustaqil Oʻzbekistonimizning poydevoriga munosib boʻla oladigan yoshlarni tarbiyalash jarayonida ongli ravishda mustaqil va mustahkam fikrga ega shaxsni shakllantirishi lozim. Shunday ekan, boshlang`ich sinf o`qituvchilari o`quvchilarni ijodkorligini oshirishda, ularni tasavvurini kengaytirishda texnologiya darslari asosida qo`l mehnatining barcha turlarini o`rganadilar va shu jarayonda qayta-qayta yasash orqali malakaga aylanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son qarori.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2017. -17 b.

3. Vygotskiy L.S. Xotira va uning bolalik davrida rivojlanishi. \\ Xotira psixologiyasi / Ed. Yu.B. Gippenrayter va V.Ya. Romanova. - M: CheR, -1998.-47-bet.

4. B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika” darslik. T.: “Sano-standart”.-2017.-37 b.

5.https://hikmatlar.uz/quote/1656

6.https://lex.uz/docs/-4622088

Nozimaxon Donayeva Norboʻtayevna

1. Norbutaevna, N. D., & Kizi, M. R. S. (2022). PEDAGOGICAL SYSTEM FOR FORMING SPIRITUAL COMPETENCE OF STUDENTS IN MODERN CONDITIONS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 754-760.

2. Donaeva, N. (2022). PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMING SPIRITUAL MATURITY IN STUDENTS IN INFORMATION ENVIRONMENT. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 64-72.

3. Donayeva, N. N., & Normurodova, F. A. (2021). O’QUVCHILARDA MANAVIY-AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH. Academic research in educational sciences, 2(NUU Conference 1), 214-216.

4. Donayeva, N. N. T. (2020). ZAMONAVIY AXBOROT MUHITIDA O’QUVCHI YOSHLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINI YUKSALTIRISH. Студенческий вестник, (22-8), 65-66.

Fazliddin Odinaboboyev

1. Чарыев, И. Профессор кафедры Педагогики ТерГУ. Одинабобоев Фазлиддин, Магистрант 2-курса ТерГУ. СОВРЕМЕННЫЕ ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ

ТЕХНОЛОГИЙ. Научно-практический журнал «Энигма» Выпуск № 32 (Апрель 2021)., 93.

2. Baxriddin o‘g‘li, F. O., Abdunabiyevich, F. A., & Norbo‘Tayevna, N. D. (2022). IMPROVING VOCATIONAL EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BY DEVELOPING PRIMARY MECHANISMS OF NATIONAL CRAFTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 577-580.

Abdurazaqov Fazliddin Abdunabiyevich

1. Abdurazakov, F. A., & Meliev, S. K. (2022). Interactive Methods Used In The Formation Of Creative Activity (On The Example Of Primary School Students). Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1), 257-262.

2. Abdurazakov, F. A., & ugli Odinaboboev, F. B. (2022). Pedagogical importance of using module educational Technologies in the system of continuous education on the basis of modern approaches. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), 173-180.

3. Abdunabievich, F. A., Ugli, F. O. B., & Norbutaevna, N. D. (2022). TYPES OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES THAT CORRESPOND TO THE SPECIFICS OF MORAL AND AESTHETIC EDUCATION AND TEACHING OF STUDENTS.

4. Абдуразақов, Ф. (2022, October). ЎҚУВЧИЛАРГА АХЛОҚИЙ-ЭСТЕТИК ТАРБИЯ БЕРИШДА НОТИҚЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. In E Conference Zone (pp. 110-115).

5. Абдуразақов, Ф. (2022). ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИДА УҚУВЧИЛАРНИНГ НОТИҚЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Conferencea, 78-84.

6. Чарыев, И., & Абдураззоков, Ф. (2021). СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. Энигма, (32), 86-93.

7. Abdurazakov, F. (2022). SPEAKING SKILLS FORMATION MECHANISMS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 91-100.

8. Xudayqulov, X., & Abdurazaqov, F. (2022). ЁШЛАР ОРАСИДА НУТҚ МАДАНИЯТИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. Science and innovation, 1(B7), 815-821.

9. Абдуразақов, Ф. А. (2023). ОҒЗАКИ ВА ЁЗМА НУТҚҚА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР. Journal of Universal Science Research, 1(1), 36-42.

10. Чарыев, И. Профессор кафедры Педагогики ТерГУ. Абдураззоков Фазлиддин, Магистрант 2-курса ТерГУ. СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. Научно-практический журнал «Энигма» Выпуск № 32 (Апрель 2021)., 86.

11. Абдуразаков, Ф. (2022). У^ УВ МАШЕУЛОТЛАРИДА У^ УВЧИЛАРНИНГ НОТЩЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ.

12. Abdurazaqov Fazliddin Abdunabiyevich. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARIGA TARBIYA BERISHDA PEDAGOG NUTQI. Journal of Universal Science

Research, 1(4), 16–23. Retrieved from http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/396

13. Baxriddin o‘g‘li, F. O., Abdunabiyevich, F. A., & Norbo‘Tayevna, N. D. (2022). IMPROVING VOCATIONAL EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BY DEVELOPING PRIMARY MECHANISMS OF NATIONAL CRAFTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 577-580.

14. Абдуразаков, Ф. (2022). O ‘quvchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3), 16-22.

15. ABDUNAYEVICH, F. тикланишдан-миллий юксалиш” деган дастурий ғоя ёшларни Она юртга са-доқат руҳида тарбиялаш, уларда ташаббускорлик, фидойилик, ахлоқий фази-латларни шакллантириш-ўта шарафли вазифа эканлигини таъкидлаган1.